

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


2017 yil yanvar-dekabr

- **E'tibor bering: 2017 yilda**
- Aholi soni 28,0 ming kishiga ko'paydi.
- Tug'ilganlar soni 37,6 ming nafarni tashkil etdi.
- 8,4 mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida 16,4 mingta nikoh va 1,3 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

**Doimiy aholi soni.** Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 yanvar holatiga 1804,7 ming kishini tashkil etib, 2017 yilda 28,0 ming kishiga yoki 1,6 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 600,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,3 %), qishloq aholisi soni 1203,9 ming kishini (66,7 %) tashkil etdi.

Viloyat tumanlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Xazorasp tumanida 239,4 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3 %ni) tashkil etib, keyingi o'rinlarda Urganch tumanida 190,1 ming kishini (10,5 %), Xonqa tumanida 179,5 ming kishini (9,9 %), Qo'shko'pir tumanida 165,6 ming kishini ( 9,2 %) tashkil etdi.

## Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 yanvar holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2017 yilda 37,6 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,0 promilleni tashkil qilib, 2016 yilga nisbatan 1,2 promillega kamaydi (2016 yilda 22,2 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2016 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Gurlan tumanida (22,8promilledan 19,6 promillega), Xazorasp tumanida (23,4 promilledan 21,7 promillega), Bog'ot tumanida (22,6 promilledan 21,7 promillega), Qo'shko'pir tumanida (22,6 promilledan 21,6 promillega), Urganch tumanida (20,0 promilledan 19,3 promillega) va Shovot tumanida (23,1 promilledan 22,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Xorazm viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni

	2016 y.		2017 y.	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>39199</b>	<b>22,2</b>	<b>37598</b>	<b>21,0</b>
<b>Urganch sh.</b>	2800	20,2	2857	20,4
<b>Xiva sh.</b>			1750	19,7
<i>tumanlar:</i>				
<b>Bog'ot</b>	3482	22,6	3398	21,7
<b>Gurlan</b>	3197	22,8	2791	19,6
<b>Qo'shko'pir</b>	3655	22,6	3545	21,6
<b>Urganch</b>	3685	20,0	3640	19,3
<b>Xazorasp</b>	5476	23,4	5161	21,7
<b>Xonqa</b>	3975	22,7	3803	21,3
<b>Xiva</b>	5098	22,8	3087	22,2
<b>Shovot</b>	3671	23,1	3616	22,3
<b>Yangiariq</b>	2296	21,0	2150	19,4
<b>Yangibozor</b>	1864	22,7	1800	21,6

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2017 yilda 8,4 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 0,1 ga ko'paygan (2016 yilda 4,6 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2016 yilning mos davriga nisbatan Urganch shahrida (6,4 promilledan 7,0 promillega), Urganch tumanida (4,4 promilledan 4,6 promillega), Xazorasp tumanidan (4,4 promilledan 4,6 promillega, Yangiariq tumani (4,2 promilledan 4,3 promillega) va Yangibozor tumani (4,5 promilledan 4,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni

	2016 y.		2017 y.	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>8158</b>	<b>4,6</b>	<b>8360</b>	<b>4,7</b>
Urganch sh.	889	6,4	972	7,0
Xiva sh.			422	4,8
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	743	4,8	713	4,5
Gurlan	690	4,9	648	4,6
Qo'shko'pir	693	4,3	691	4,2
Urganch	807	4,4	859	4,6
Xazorasp	1035	4,4	1093	4,6
Xonqa	758	4,3	775	4,4
Xiva	981	4,4	588	4,2
Shovot	738	4,6	736	4,5
Yangiariq	456	4,2	479	4,3
Yangibozor	368	4,5	384	4,6


## Demografik holat

2017 yilda qayd etilgan vafot etganlarning 57,0 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,0 %i o'simtalardan, 6,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,2 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 15,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalarning 68,0 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 10,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,3 %i tug'ma anomaliyalardan, 4,1 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 0,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,3 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 5,6 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2017 yil yanvar-dekabr

**Tabiiy o'sish.** 2017 yilda aholining tabiiy o'sishi 29,2 ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 1,8 ming kishiga (2016 yilda 31,0 ming kishi bo'lgan) kamaygan.

## Demografik holat

**Nikoh.** 2017 yilda FHDYO organlari tomonidan 16,4 mingta nikoh qayd etildi. Viloyat bo'yicha 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,2 promilleni tashkil etmoqda. Tuzilgan nikohlar soni 2016 yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bog'ot (18,4 %), Shovot (16,8 %) va Gurlan (12,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Xorazm viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2016 y.	2017 y.	2016 y.	2017 y.
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>14 932</b>	<b>16397</b>	<b>1152</b>	<b>1325</b>
Urganch sh.	1 263	1329	217	260
Xiva sh.		648		55
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	1 318	1560	60	67
Gurlan	1 157	1301	81	94
Qo'shko'pir	1 338	1500	92	143
Urganch	1 473	1609	150	160
Xazorasp	2 085	2415	114	160
Xonqa	1 630	1620	97	89
Xiva	1 686	1201	124	68
Shovot	1 271	1485	92	107
Yangiariq	979	952	61	69
Yangibozor	732	777	64	53

**Nikohdan ajralishlar.** 2017 yilda FHDYO organlari tomonidan 1,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi

Ajrimlar soni 2016 yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'shko'pir (55,4%), Xazorasp(40,3%), Urganch shahrida (19,8 %) va Shovot (16,3 ), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2017 yilda Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,3 ming kishi bo'lib, 2016 yilga nisbatan 0,1 ming kishiga kamaygan.

### Aholi migratsiyasi, ming kishi

	2016 y.	2017 y.
<b>Ko'chib kelganlar</b>	6,2	6,6
<b>Ko'chib ketganlar</b>	7,4	7,9
<b>Migratsiya saldosi</b>	-1,2	-1,3

**Ko'chib kelganlar:** Ko'chib kelganlar soni Urganch tumani (2,3 ming kishi), Urganch shahri (1,5 ming kishi), Qo'shko'pir va Shovot (0,4 ming kishi) va Xonqa (0,3 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

**Ko'chib ketganlar:** Ko'chib ketganlar soni Urganch shahri (2,6 ming kishi), Urganch tumani (1,2 ming kishi), Qo'shko'pir va Xazorasp (0,6 ming kishi) Xonqa (0,5 ming kishi) va Shovot (0,4 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

**Migratsion saldo:** Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Urganch shahri (minus 1,0 ming kishi), Xazorasp (minus 0,4 ming kishi), Gurlan va Qo'shko'pir (minus 0,2 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Z.Babadjanov  
(0371) 230-87-81